

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.Jo'rayeva</b>	
Firoqiy va Partav .....	314
<b>Z.Teshabojeva</b>	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati .....	318
<b>N.J.Abdusamatova</b>	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash .....	322
<b>Sh.A.Ermatova</b>	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish .....	326
<b>M.J.Jurabojeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi .....	331
<b>Sh.M.Usanov</b>	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'рни.....	334
<b>V.A.Giyosova</b>	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari .....	339
<b>Г.Р.Абдуллаев</b>	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
<b>J.Sh.Amayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
<b>M.T.Voxidova</b>	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari .....	350
<b>N.M.Xodjibolajeva</b>	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari .....	354
<b>Sh.M.Muxamedov</b>	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
<b>S.I.Raxmatullajeva</b>	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi .....	371
<b>M.A.Junaydullajev</b>	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari .....	377
<b>M.M.Temirova</b>	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari .....	382
<b>M.U.Kurbanov</b>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv .....	387
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari .....	391
<b>M.C.Ganieva</b>	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
<b>I.A.Ismoilov</b>	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida .....	401
<b>D.G'.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi .....	405
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir .....	408
<b>M.M.Yunusov</b>	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari .....	416
<b>G'.M.Alamov</b>	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'рни.....	420

**ICHKI ISHLAR PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI****ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ И ФУНКЦИИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ОХРАНЕ И ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА****THE MAIN TASKS AND FUNCTIONS OF INTERNAL AFFAIRS PREVENTIVE INSPECTORS IN MAINTAINING AND ENSURING THE SAFETY OF PUBLIC ORDER****Temirova Mashhura Muhammadaminovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası v.b dotsenti. PhD**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Respublikada mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida mazmun-mohiyatiga ko'ra misli ko'rilmagan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilganligi, bunda fuqarolar va jamiyatning terrorchilik, qo'poruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi jinoyat ko'rinishlaridan ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan tizimni shakllantirish, uni shaxs huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylantirishda profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari nimalardan iborat ekanli to'g'risida so'z boradi.

**Аннотация**

В данной статье отмечается, что за годы независимости в республике были осуществлены беспрецедентные по своему содержанию масштабные реформы в области совершенствования системы органов внутренних дел, в результате которых была создана система, обеспечивающая надежную защиту граждан и общества от террористических, подрывных посягательств, экстремизма во всех его формах, организованной преступности, а также обеспечение защиты прав и свобод личности., речь идет о том, каковы основные задачи и функции инспекторов по профилактике в поддержании и обеспечении безопасности общественного порядка, превращая его в надежную гарантию охраны общественного порядка и безопасности граждан.

**Abstract**

In this article, an unprecedented large-scale reform of the Republic in terms of content and essence in improving the system of internal affairs bodies during the years of independence, the formation of a system that ensures the reliable protection of citizens and society from terrorist, subversive attacks, extremism of all forms, criminal manifestations such as organized crime., what are the main tasks and functions of preventive inspectors in maintaining public order and ensuring the safety of citizens in making it a reliable guarantee of protection of Public Order and security.

**Kalit so'zlar:** ichki ishlar, jamoat, huquq, millat, erkinlik, xavfsizlik, jinoyat, jazo, huquqbuzarlik, tartib, intizom.

**Ключевые слова:** внутренние дела, общественность, право, нация, свобода, безопасность, преступление, наказание, правонарушение, порядок, дисциплина.

**Key words:** internal affairs, public, law, nation, freedom, security, Crime, Punishment, offense, order, discipline.

**KIRISH**

Jahon miqyosida kechayotgan globallashtirish jarayonlarida g'oyaviy, mafkuraviy va informatsion kurash, jahon iqtisodiy inqirozi, ishsizlikning ortib borishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarama-qarshiliklarning xalqaro tus olayotganligi, ommaviy noroziliklar, mintaqaviy mojarolar, ichki nizolarning kuchayib borayotgani davlatlar xavfsizligini ta'minlash masalasiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Bu, o'z navbatida, davlat mexanizmining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan politsiyaning davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatidagi o'rni va rolini kuchaytirib borish zaruratini oshiradi. Shu sababli respublikada 1992 yildan ichki ishlar tizimi faoliyatini qaytadan takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Ammo Respublikada ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatidagi asosiy vazifalar va ularning funksiyalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish borasidagi tadqiqotlar kam ko'zga tashlanadi. Shu sababga ko'ra tadqiqotning maqsadi va vazifalari etib O'zbekistonda ichki ishlar organlarining tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlarini xamda istiqbol arafasidagi ahvolni retrospektiv tarzda ochib berish, tadqiqot davrida ichki ishlar organlarida o'tkazilgan islohotlarning bosqichlarini tahlil qilish va tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlarni o'rganish belgilangan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'zbekiston militsiyasining davlat boshqaruv tizimidagi faoliyatini XX asrning 70-yillarida tadqiq etgan A.Atadjanov, T.A.Djalilov, X.Alimovlarni shu davr olimlariga kiritish joiz. O'zbekiston mustaqilligi yillarida o'tkazilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Bunda huquqshunoslardan Z.Gulyamov, B.A.Arifdjanov, A.A.Satarov, A.A.Samandarov, N.B.Shoimov, M.D.Ziyodullaev, J.S.Muxtorov, Yu.S.Po'latov, I.Ismoilov va boshqalar o'z ilmiy qarashlarini bayon etganlar. 1991-2011 yillar oralig'ida mazkur sohaning ko'p yillik amaliyotchi xodimlaridan U.Tadjixanov, G'.Raximov, B.G'.Siddiqov, M.Boboev, O.Soatov, I.Yusupov, Q.Davlatov, M.Abdullaev, M.Tillayevlarning asarlarida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashda o'z hissalarini qo'shgan ichki ishlar organlari xodimlari haqidagi ma'lumotlar berilgan. Tarixchilardan mavzuga oid dastlabki tadqiqotlarni o'tkazgan N.Taumuratovning "История милиции Каракалпакстана в период восстановления национальной государственности (1917-1936 гг.)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1999) va A.Yermetovning «Turkiston ASSRda nazorat organlari va ularning totalitar tuzum o'rnatilishidagi o'rni (1918-1924 yillar)» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarini (2006) keltirib o'tish mumkin. Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlari O'zbekiston ichki ishlar organlari tarixining ayrim jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijalari, milliy qonunchilik normalari va mazkur soha faoliyatining tarixiy jihatlarini ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda monografik tarzda tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari aholining demografik o'sish suratlari qarang ortib borganligi va uning huquqiy asoslari yanada mustahkamlanib borganligi qiyosiy jihatdan aniqlangan.


**TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI**

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida mazmun-mohiyatiga ko'ra misli ko'rilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bunda fuqarolar va jamiyatning terrorchilik, qo'poruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi jinoyat ko'rinishlaridan ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan tizimni shakllantirish, uni shaxs huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garoviga aylantirish asosiy maqsad qilib qo'yildi [1, 404].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash kontseptsiyasi to'g'risida»gi 1999-yil 12-aprel qarori asosida Toshkent shahrida boshlangan islohotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2001-yil 27 mart farmoni asosida butun respublika ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirildi. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Jinoyatchilikka qarshi kurashda Ichki ishlar vazirligi profilaktika xizmatining rolini kuchaytirish choralari to'g'risida»gi 2001-yil 6-iyun qarori asosida aholi turar joylarida huquqbuzarliklarning oldini olishning yangi tizimi tashkil etildi [2, 4].

O'tgan yillar davomida tayanch punktlarining faoliyati va ular negizidagi hamkorlikning huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy texnikaviy va kadrlarga oid asoslari shakllandi. Tayanch punktlari faoliyatini tashkil etish va boshqarishga xizmat qiladigan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, jamiyat hayotiga tatbiq etildi. Buning natijasida ular faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos tartibi va printsiplari qaror topdi. Tayanch punktlarining moddiy-texnikaviy bazasi va infratuzilmasi yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Ularni malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, bu boradagi ishlarning sifatini oshirish borasida ham qator tizimli ishlar qilinmoqda. Natijada, bugunga kelib tayanch punktlari mahallalar, qishloqlar, shaharchalar va ovullarda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini ta'minlashning asosiy maskaniga aylandi. Ularda ichki ishlar organlari tegishli sohaviy xizmatlarining xodimlari o'zaro, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa jamoatchilik tuzilmalari hamda davlat hokimiyatining boshqa organlari bilan uzviy hamkorlikda xizmat ko'rsatib kelmoqda. Tayanch punktlari infratuzilmasida voyaga yetmaganlar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali ularning turli salbiy oqimlar ta'siriga tushishining, mahallalarda jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga erishilmoqda. Bu boradagi ishlar natijasida so'nggi besh yil davomida mamlakatimiz mahallalarining o'rtacha yigirma foiziga

yaqinida jinoyat sodir etilishiga umuman yo'l qo'yilmadi. Shuningdek, hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar natijasida barcha jinoyatlar tarkibida o'ta og'ir va og'ir turlarining ulushi kamayib borishiga erishilmoqda. Xususan, respublikamizda 2000-yilda sodir etilgan jinoyatlar tarkibida o'ta og'ir jinoyatlar 11,7 foiz va og'ir turdagi jinoyatlar 30,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yillar davomida ularning kamayib borishiga erishilib, 2016-yilda bu ko'rsatkichlar tegishlicha 3,99 va 11,38 foizni tashkil qildi [3, 4]. Bunday natijalarni qo'lga kiritishda, tabiiyki, respublikamizda faoliyat yuritayotgan tayanch punktlarining ham o'rni katta. Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalar qo'ymoqda. Bu esa mamlakatimiz ichki ishlar organlari, xususan ularning tayanch punktlari faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Respublikada jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi olib borilgan chora tadbirlar natijasida aholi orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar soni birmunchaga kamaydi. Ushbu jadavalda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning turli shakllari bo'yicha respublikadagi umumiy holat aks etgan.



O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida belgilab berilgan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini hududlarda tashkil etish va amalga oshirilishini ta'minlash aynan profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: 1. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida vakolatli davlat organlari va tashkilotlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha faoliyati natijalarini umumlashtirish va yagona axborot-tahlil tizimiga kiritilishini ta'minlash.

2. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududidagi kriminogen vaziyatni muntazam ravishda o'rganib borish, huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish bo'yicha qonunchilikda belgilangan choratadbirlarni amalga oshirish.

3. Biriktirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida aholi o'rtasida huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus va viktimologik profilaktikasini amalga oshirish.

4. Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni belgilangan tartibda profilaktik hisobga va ma'muriy nazoratga olish, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy moslashtirish ishlarini individual dastur tuzgan holda tashkil etish.

5. Yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik choratadbirlarni amalga oshirish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish.

6. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlarga ko'maklashish.

7. Voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, terrorism, ekstremizm, zo'rvonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan ishlarni bevosita amalga oshirish.

8. Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga himoya orderini berish va himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish.

9. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida bayonnomalar tuzish va O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq tegishli ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish.

10. Jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, ularning murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqish.

11. Vakolatli davlat organlari va tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda birlashtirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida har bir oilani bevosita joyida o'rgangan holda, fuqarolarning jamoat xavfsizligiga oid va huquqbuzarliklarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan muammolari va noroziliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarini ko'rish.

12. Birlashtirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida pasport rejimi qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish.

13. Tajovuzkor ruhiy kasallar, spirtli ichimlikka ruju qo'yganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalariga ko'maklashish.

14. Probatsiya nazoratidagilarning xulq-atvorini nazorat qilishda, o'rnatilgan cheklovlarga rioya etishini tekshirishda, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishining oldini olishda probatsiya inspektorlariga ko'maklashish.

15. Birlashtirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida jamoat tartibini saqlashga doir choratadbirlarni amalga oshirish, "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul' guruhlarini faoliyatini tashkil etish. Fuqarolarni, ularning roziligi bilan, huquqbuzarliklar profilaktikasi choralari amalga oshirishda ko'maklashishga jalb etish.

16. Davlat organlari, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish hamda mahalladagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etmaganlik yuzasidan taqdimnomalar kiritish.

17. Birlashtirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o'qdorilarini saqlash qoidalariga rioya etilishini nazorat qilishga ko'maklashish.

18. Birlashtirilgan mahalla (qishloq, ovul) hududida taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g'ayriqonuniy va buzg'unchilik yo'nalishidagi guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlashga ko'maklashish.

19. OIV/OITSning tarqalishini barvaqt oldini olish, axloqsizlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda fohishaxonalarning saqlanishiga chek qo'yishga ko'maklashish.

20. Doimiy yashash joyini uzoq muddatga tark etgan shaxslarni aniqlash va hisobini yuritish, ularning chet elda bo'lish joylari va muddatlarini aniqlash yuzasidan qarindoshlari bilan muntazam ish olib borish, uzoq muddat mobaynida chet elda bo'lib qaytgan shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshirish.

21. Jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, jazodan bo'yin tovlayotgan, bedarak yo'qolgan shaxslarni hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirish, shuningdek, shaxsi noma'lum murdalarning shaxsini aniqlash bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashish.

22. Shaxsni majburiy keltirish to'g'risida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimini belgilangan tartibda ijro etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyoyev: "Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning

uchun, avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma'suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralari ko'rishimiz darkor"[4.1-3], deb huquqbuzarliklar profilaktikasida profilaktika inspektorlari faoliyati muhimligini ta'kidlab o'tdi.

### XULOSA

Qiladigan bo'lsak, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda profilaktika inspektorlarining roli va o'rni beqiyosdir. Shu boisdan profilaktika inspektorlari faoliyatini bugungi kun talabidan kelib chiqib, zamonga mos ravishda takomillashtirib borish, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida ijobiy natijalarga erishishni ta'minlash bilan bir qatorda, jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И. А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. . – Т., 1999. – Б. 403–404.
2. Қаршиев Ғ. С. Профилактика инспекторлари томонидан ҳуқуқий тартиботни таъминлаш ўқув-амалий қўлланма. –Т., 2016. – Б. 4.
3. Исмаилов И, Зиёдуллаев З. Ички ишлар органлари таянч пунктларида профилактика инспекторларининг фаолияти ва ҳамкорлигини ташкил этиш . ўқув-амалий қўлланма. © Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Т– 2017– Б.4.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. / Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // Халқ сўзи. – 2016. – № 243 (6678). – Б. 1–3.